TELEVIZION TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI EFIR VA STRIMINGNING FARQLI JIHATLARI

Perxan Qudaybergenovna ALLAMBERGENOVA
dotsent
filologiya fanlari doktori (DSc)
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
Perkhanalla1975@gmail.com
ORCID: p1e2r3x4a5n6

Annotatsiya

Ushbu maqolada retrospektiv va qiyosiy tahlil usullari asosida televizion to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir va strimingning farqli jihatlari ochib berilgan. Tahlil natijasida ular o‘rtasidagi farq kontentni yaratish, qayta ishlash, efirga uzatish va auditoriya bilan muloqot qilishning tashkiliy-texnologik xususiyatlarida namoyon bo‘lishi asoslangan.

Tayanch so‘zlar: striming, platforma, to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir, televideniye, internet.

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЛЕВИЗИОННОГО ПРЯМОГО ЭФИРА И СТРИМИНГА

Перхан Кудайбергеновна АЛЛАМБЕРГЕНОВА
.доцент
доктор филологических наук (DSc)
Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
Ташкент, Узбекистан
Perkhanalla1975@gmail.com
ORCID: p1e2r3x4a5n6

Аннотация

В статье на основе ретроспективного и сравнительного анализа раскрываются отличительные особенности телевизионного прямого эфира и стриминга. В результате анализа обосновано, что различия между ними проявляются в организационно-технологических особенностях создания, обработки и передачи контента, а также коммуникации с аудиторией.

Ключевые слова: стриминг, платформа, прямой эфир, телевидение, интернет.

Zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishi barcha ommaviy axborot vositalari kabi televideniye faoliyatida ham namoyon bo‘lmoqda [1; 4]. Televideniyeda translyatsiya jarayoni bir necha bosqichda rivojlanib bordi. Shu o‘rinda retrospektiv tahlilga murojaat qilamiz. 1928-yil 30-noyabrda Toshkentda

ixtirochilar B.P.Grabovskiy va I.F.Belyanskiy harakatdagi tasvirni elektron nur yordamida bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan va qabul qiladigan elektr teletizim “telefot”ni yaratib (5592-raqamli patent), uni muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazdi [12;16]. Bu jarayonlar televizion translyatsiya texnologiyalarining rivojlanishiga turtki berdi va natijada tasvir sifatini yaxshilash imkoniyatlari kengaydi. Bir necha o‘n yil o‘tib, 1956-yildan boshlab teleko‘rsatuvlarni muntazam namoyish etish imkoniyati yuzaga keldi. Televizion texnologiyalar rivojidagi navbatdagi muhim bosqichda Toshkent telemarkaziga ko‘chma telestansiya olib kelinib, u orqali ilk bor Alisher Navoiy nomidagi Akademik katta teatrda bo‘lib o‘tayotgan tadbir olib ko‘rsatildi [12;16]. Shundan keyin televizion texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanib, hajmi katta va og‘ir telekameralar, magnit tasmasiga yozib olish texnologiyasi, tasvirni qayta tiklaydigan magnitofonlar hamda ulkan apparat xonalaridan foydalanila boshlandi. Bu texnik vositalar zamonaviy ixcham raqamli televizion tizimlardan tubdan farq qilar edi.

Shuni ta’kidlash lozimki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir televideniyening tabiiy xususiyatlaridan biri. Ommaviy televizion efirning dastlabki bosqichida muhim voqealarni televideniye orqali namoyish etishning yagona imkoniyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir translyatsiyalari edi. Bunday efir uzatish amaliyoti o‘tgan asrning 1970-yillarigacha, ya’ni videoyozuv apparaturasi paydo bo‘lib, uni sanoat miqyosida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilguniga qadar saqlanib qoldi.

An’anaviy televideniyeda to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir uchun, avvalo, dastur konsepsiyasini ishlab chiqish, ssenariy yaratish, aktyor, boshlovchi va ishtirokchilarni tanlash, syomka lokatsiyasini belgilash, dekoratsiyalarni tayyorlash, zarur texnik mutaxassislar va jihozlarni shakllantirish hamda tasvirga olish jarayonini tashkil etish talab etiladi.

Mutaxassislar televideniyeda to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishadi: “Bu auditoriyani ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotdan xabardor qilish maqsadida tasvir, shuningdek, ovozli hamrohlik (original yoki kombinatsiyalashgan shovqinlar, musiqa, sinxron yoki kadr orti ovozli nutq) ko‘rinishidagi axborotni oldindan rejalashtirilgan va amalga oshirilgan

holda tarqatish (namoyish etish, translyatsiya qilish) jarayoni bo‘lib, u real sodir bo‘layotgan voqea yoki harakat bilan bir vaqtda (bevosita) amalga oshiriladi. Bunga maxsus tashkil etilgan hujjatli va badiiy-publitsistik tuzilma (teledastur, ko‘rsatuv), shuningdek, boshlovchining kommunikativ faoliyati ham kiradi” [5;5].

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, respondentning jonli efirda ulanishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirda uzatilayotgan ko‘rsatuvning tarkibiy qismi sifatida qarash lozim.

1980-yillarning oxiriga qadar televideniyeda deyarli barcha dasturlar, qoida tariqasida, oldindan yozib olingan holda efirga uzatilar edi. Ba’zi mutaxassislar bu holatni senzura masalalari bilan ham bog‘laydi. Ammo shu tariqa ko‘rsatuvlarni takror uzatish imkoniyati yaratilganini ham esdan chiqarmaslik kerak. To‘g‘ridan-to‘g‘ri efir televideniye ekraniga mamlakatdagi siyosiy o‘zgarishlar bilan yana qaytdi. Bunga, bir tomondan, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ikkinchi tomondan esa mamlakatda sodir bo‘layotgan jarayonlar dinamikasining kuchayishi va ommaviy axborot vositalari faolligining ortishi sabab bo‘ldi [4]. Televideniye tadqiqotchisi V.V.Yegorov bu o‘zgarishlarni yana bir muhim omil bilan bog‘laydi: “1980-yillarning oxirida SSSR G‘arb radiostansiyalarining signallarini to‘sishni to‘xtatdi va o‘z fuqarolarining axborot manbalarini tanlash huquqini tan oldi. 1990-yilda davlat senzura organi Glavlit tugatildi” [3;2].

Televideniyeda to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirning qayta tiklanishi televizion jurnalistikaning ijodiy tarkibiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Birinchi navbatda, bu axborotni taqdim etish sifatida namoyon bo‘ldi. Televizion dasturlarni olib borish uslubi neytral bo‘lgan diktorlar efirdan asta-sekin chiqib ketdi, yangiliklarni esa kasbning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur anglagan professional jurnalistlar olib bora boshladi.

2000-yillardan keyin G‘arb andozalari asosida tayyorlangan dasturlar – tok-shou, o‘yin va efirda ta’sirchan tomosha muhitini yaratishga yo‘naltirilgan turli formatlar paydo bo‘ldi. Bunday dasturlar ham to‘g‘ridan to‘g‘ri efirda, ham oldindan yozib olingan holda efirga uzatila boshlandi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri efir esa axboriy televideniyeda o‘z mavqeyini saqlab qoldi.

XXI asr boshlarida namoyon bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirdan faol foydalanishning uchinchi to‘lqini raqamli axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda OAV o‘rtasida vizual axborotni tezkor uzatish sohasida raqobatning kuchayishi bilan bog‘liq. Shuningdek, televideniyening to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir rejimida rivojlanish bosqichlariga e’tibor qaratish lozim. Birinchi bosqichda televideniye to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir vositasida, asosan, real voqelikda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni qayd etgan. Ikkinchi bosqichda esa voqea-hodisalar televideniye talablariga moslashtirila boshlandi. Masalan, ommaviy tadbirlarni tashkil etishda ularni televideniyening to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirida translyatsiya qilish talablari hisobga olinadigan bo‘ldi.

Uchinchi raqamli (digital) bosqichning boshlanishi esa real voqelikning mediareallikka aylanishi, ya’ni voqelikning televizion ramz va belgilar orqali translyatsiya qilinishi bilan tavsiflanadi. Mazkur ramzlar televideniye ekranida voqelikning muayyan modelini konstruksiya qiladi. Bu esa tadqiqotchilarga jamiyatning mediatizatsiya jarayoni faollashayotganiga xulosa chiqarish imkonini beradi. Mediatizatsiyaning mohiyati shundan iboratki, OAV nafaqat ijtimoiy hayotning oldingi qatoriga chiqadi, balki “ijtimoiy va madaniy voqelikning bazaviy elementlariga mediaga xos bo‘lgan alohida shakl, ya’ni mediaforma berish jarayoni”ni ham yuzaga keltiradi [10; 5].

Boshqacha aytganda, ommaviy axborot vositalari kun tartibiga kiritilmagan voqea keng auditoriya uchun mavjud bo‘lmagan voqelikka aylanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy mediamakonda voqea-hodisaning ijtimoiy ahamiyati ko‘p jihatdan uning OAVda qanday yoritilishi va auditoriyaga qanday shaklda taqdim etilishi bilan belgilanadi. Demak, an’anaviy televizion efir nafaqat tayyor mediamahsulotni tomoshabinga yetkazish vositasi, balki konsepsiya, ssenariy, ijodiy va texnik ishlab chiqarish, postprodakshn hamda efirga uzatish kabi o‘zaro bog‘liq bosqichlarni qamrab olgan murakkab mediatexnologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Internetning paydo bo‘lishi mazkur jarayonning dolzarbligiga biroz ta’sir qildi. Chunki internet foydalanuvchilari voqea yoki hodisa natijasini oldindan bilib olish imkoniyatiga ega bo‘la boshladi. Internet texnologiyalarining

rivojlanishi bilan bir qatorda “strim” tushunchasi ham shakllandi. Shu tariqa internet muhitida videokontentni real vaqt rejimida uzatishning yangi shakli – striming vujudga keldi.

Strim – internet tarmog‘i orqali amalga oshiriladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir translyatsiyasi. Bu holatda haqiqiy real vaqt rejimidagi jonli efir haqida so‘z boradi, unda ma’lum darajada qisqa kechikish bo‘lishi mumkin. Strimni tashkil etish uchun katta hajmdagi va uzoq davom etadigan tayyorgarlik jarayoni talab etilmaydi. Tabiiyki, bunda postprodakshn jarayoni ham mavjud emas. Biroq oldindan yozib olingan materialni ham strim shaklida uzatish mumkin. Bu jarayon pandemiya davrida, ayniqsa, keng ommalashdi va dolzarb ahamiyat kasb etdi. Sifatli strimni tashkil etish uchun televizion translyatsiyalardagi kabi texnik jihozlar, yuqori malakali mutaxassislar va professional yondashuv talab etiladi. Ana shunda yakuniy mediamahsulot ham televizion translyatsiya singari yuqori sifatga ega bo‘lishi mumkin. Ularning asosiy farqi shundaki, strimda kontent internet tarmog‘i orqali uzatiladi. Ayrim hollarda unda kichik hajmdagi vaqt kechikishi kuzatilishi mumkin, biroq bunday kechikish, odatda, katta ahamiyat kasb etmaydi.

Strimni tashkil etish uchun an’anaviy televizion dasturlardagidek uzoq va murakkab tayyorgarlik jarayoni talab etilmaydi. Shu bilan birga, ayrim hollarda strim doirasida oldindan tasvirga olingan materiallar ham efirga uzatilishi mumkin. Demak, strimning asosiy xususiyati uning internet muhitida, real vaqtga yaqin rejimda va auditoriya bilan bevosita kommunikatsiya imkoniyati asosida amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Strim tushunchasi dastlabki ma’nosida bir serverdan boshqa serverga uzatiladigan hamda video va audio signallarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar oqimini anglatadi. Mohiyatan, strimni internet makonida harakatlanuvchi muayyan raqamli ma’lumotlar oqimi sifatida tasavvur qilish mumkin. “Striming” atamasi ingliz tilidagi “to stream” fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, “oqmoq”, “oqim” ma’nolarini anglatadi. Mazkur atama internet tarmog‘i orqali ma’lumotlarni real vaqt rejimida uzatish jarayonini ifodalash uchun qo‘llaniladi. “Striming” so‘zini

o‘zbek tilida mazmunan “to‘g‘ridan-to‘g‘ri translyatsiya”, “real vaqt rejimida uzatish” yoki kontekstga qarab “onlayn efir” tarzida talqin qilish mumkin [11].

To‘g‘ridan-to‘g‘ri efir (bu o‘rinda striming ham nazarda tutilmoqda) televideniyening saqlanib qolayotgan o‘ziga xos va alohida imkoniyati sifatida boshqa OAV o‘rtasida uning raqobatbardoshligini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omildir. “Albatta, televideniyening asosiy talabi ham voqea-hodisani sodir bo‘layotgan joydan bevosita efirga uzatishdir” [2; 25].

Televizion translyatsiyani strimdan ajratib turuvchi asosiy jihatlardan biri montaj jarayoni va yakuniy mediamahsulotni mukammallashtirish imkoniyatidir. Televizion to‘g‘ridan to‘g‘ri efirning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda tayyorgarlikning barcha muddatlari bir necha kungacha qisqaradi. Davomiyligi 12 soat bo‘lgan jonli efirni tayyorlash jarayonida nihoyatda ko‘p mutaxassis ishtirok etadi.

Agar televideniyeni o‘z kapitaniga ega bo‘lgan yirik kemaga qiyoslasak, u belgilangan qoidalarga amal qiladi, telekanalning tamoyillaridan chetga chiqmaydi va belgilangan yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi. Strimni esa insonning o‘zi mustaqil ravishda yo‘nalish tanlaydigan, nimani namoyish etish va qanday mazmundagi kontentni auditoriyaga taqdim etishni o‘zi hal qiladigan keng imkoniyatlar makoniga qiyoslash mumkin. Mutaxassislar fikricha, smartfonga ega bo‘lgan har bir inson ma’lum ma’noda mustaqil translyatorga aylanib, voqelikni o‘z nuqtayi nazari asosida auditoriyaga taqdim etishi mumkin.

Bugun tomoshabinlarning qiziqish va ehtiyojlarida yuz berayotgan o‘zgarishlarni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Auditoriyaning o‘zgarib borayotgan talab va ehtiyojlariga tezkor munosabat bildirish, mediakontentni ushbu o‘zgarishlarga mos ravishda takomillashtirish zamonaviy televideniye va onlayn medianing muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [7].

Professional televizion strimingni tashkil etish yuqori sifatli mediakontent shakllanishiga olib keladi. U oldindan puxta tayyorlangan, qiziqarli, muayyan maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilgan hamda tomoshabinga tasviriy ifodaning turli imkoniyatlarini namoyon etadigan kontent bo‘ladi. Zamonaviy striming muhitida

tomoshabin bunday kontentni faqat televizor orqali kuzatuvchi sifatida qabul qilib qolmaydi, balki uning to‘laqonli ishtirokchisiga ham aylanishi mumkin. Unda auditoriyaning kontent yaratish va kommunikatsiya jarayonida bevosita ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, striming texnologiyalarining televizion efirning professional ishlab chiqarish standartlari bilan uyg‘unlashuvi texnik sifatni oshirish bilan birga kontentning ijodiy, kommunikatsion va interaktiv imkoniyatlarini kengaytirishga ham zamin yaratadi [7].

O‘tkazilgan tadqiqotlardan birida “jonli videokontenti 93 foizga oshgani, bir seans davomida tomosha qilishning o‘rtacha vaqti esa 26,4 daqiqani tashkil etgani” qayd etilgan[6]. Mazkur ma’lumotlar bugun auditoriyaning jonli videotranslyatsiyalarga sezilarli darajada vaqt ajratayotganini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda aksariyat telekompaniyalar to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga chiqish yoki onlayn (online) ulanishni ta’minlash texnik imkoniyatiga ega. Boshqa OAV turlaridan farqli ravishda, televideniye voqea-hodisalarning vizual obrazlarini translyatsiya qilish orqali auditoriyada sodir bo‘layotgan jarayon haqida muayyan tasavvur va taassurotni shakllantiradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri efir rejimida uzatiladigan dasturlarning asosiy farqlovchi xususiyatiga e’tibor qaratish lozim. Bu voqea yoki harakatning real vaqtda sodir bo‘layotgan jarayon bilan bir vaqtda (bevosita) namoyish etilishidir. Mazkur xususiyat auditoriyaga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Televideniye o‘ziga xos noyob xususiyat – immersivlikka ega bo‘lib, u ekranda sodir bo‘layotgan voqeaga nisbatan ishtirok etish, voqea markazida bo‘lish va unga emotsional jihatdan singib borish samarasini yuzaga keltiradi. Tomoshabin virtual voqelikka “sho‘ng‘igan” holda uning guvohi va kuzatuvchisiga aylanadi hamda mazkur virtual voqelikni ijtimoiy voqelik sifatida qabul qiladi.

Televideniye tadqiqotchilari ta’kidlashicha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirdan foydalanish jarayonida ekrandagi tasvir real hayotda kechayotgan voqealar bilan parallel ravishda translyatsiya qilingani sababli axborotning vizual ishonchliligi ta’minlanadi. Televideniye nazariyasida mazkur xususiyat simultanlik fenomeni sifatida belgilanadi. “Tomoshabinda u mazkur voqea joyida shaxsan, bevosita

ishtirok etayotgandek tasavvur paydo bo‘ladi va aynan shu holat televizion tasvirni ayniqsa ishonchli, hujjatli xususiyatga ega qiladi” [9; 205].

Shu bilan birga, tadqiqotchilar jonli efirning axborotni ishonchli va hujjatli ko‘rsatish samarasi bilan bir qatorda, tomoshabinning voqelikni qabul qilish jarayonini manipulyatsiya qilish uchun real sharoit ham yaratishi mumkinligidan ogohlantiradi [4].

Sifatli strimni tashkil etish uchun maxsus texnik jihozlardan samarali foydalanish talab etiladi. Xususan, ovoz va tasvir sifatining yuqori darajada bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero strimning ta’sirchanligi va auditoriya tomonidan qabul qilinishi ko‘p jihatdan aynan shu omillarga bog‘liq. Mazkur translyatsiya shakli auditoriyaga voqea-hodisalarni aynan hozir, ya’ni real vaqtga yaqin rejimda kuzatish imkonini beradi. Agar strim kontenti televizion efir mahsuloti kabi puxta rejalashtirilib, ssenariy, kompozitsiya, tasvir va ovoz sifati, montaj hamda dramaturgik yechimlar nuqtayi nazaridan professional yondashuv asosida tayyorlansa, uning umumiy sifati sezilarli darajada oshishi mumkin. Bunday yondashuv kontentning yanada qiziqarli, mazmunli va puxta o‘ylangan bo‘lishini ta’minlaydi.

Strimerlarda ijodiy qobiliyat va kreativ yondashuvning mavjudligi ham mazkur mediashaklning muhim xususiyatlaridan biridir. Amaliyotda ayrim strimerlar o‘z translyatsiyalari davomida turli original performanslar, interaktiv chiqish va ijodiy loyihalarni tashkil etadi. Bu esa striming muhitida yangi kontent shakllari va kommunikatsiya usullarining paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, strimlar orqali turli tovar va xizmatlarni targ‘ib qilish imkoniyati ham mavjud. Ayniqsa, strimer auditoriya ishonchiga ega bo‘lgan holatlarda uning tavsiyalari reklamaviy kommunikatsiyaning ta’sirchan vositalaridan biriga aylanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, striming zamonaviy raqamli media muhitida reklama, marketing va monetizatsiya jarayonlarini amalga oshirish imkonini beruvchi kommunikatsion platforma sifatida ham namoyon bo‘ladi [8].

Shunday qilib, televizion translyatsiya va strim o‘rtasidagi farq, avvalo, kontentni yaratish, qayta ishlash, efirga uzatish va auditoriya bilan

kommunikatsiya qilish jarayonlarining tashkiliy-texnologik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. An’anaviy televizion mahsulotda rejalashtirish, ssenariylashtirish, suratga olish, montaj va tahrir qilish jarayonlari muhim o‘rin tutsa, strimingda kontentni real vaqt rejimida uzatish va auditoriya bilan bevosita interaktiv aloqa qilish imkoniyati ustuvor ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allambergenova P. Audiovizual jurnalistika. Telejurnalistika janrlari. – Toshkent: Universitet, 2022.

2. Allambergenova P. Televideniye evolyutsiyasi va zamonaviy tendensiyalar (Qoraqalpog‘iston televideniyesi misolida). – Toshkent: Ma’rifat, 2024.

3. Егоров В.В. Телевидение между прошлым и будущим. – Москва, 1999.

4. Куксин И.А. Прямой эфир на ТВ: история и тенденции //Филологический аспект, 2015. – №7 (7). URL: https://scipress.ru/philology/articles/pryamoj-efir-na-tv-istoriya-i-tendentsii.html

5. Летуновский В.П. Телевизионный журналист в прямом эфире: Учеб. пособие. – СПб., 2004.

6. Стриминг это легко: устройства для потокового вещания. URL: https://optavideo.com/system-integration/resheniya/striming-eto-legko-ustroystva-dlya-potokovogo-veshaniya.html

7. ТВ-трансляции vs стримы: в чём разница. URL: https://eventologia.ru/blog/tv-translyatsii-vs-strimy-v-chem-raznitsa

8. Трансляция, прямой эфир, стрим: что это такое и в чём разница. URL: https://fline-decor.ru/2024/10/03/translyaciya-pryamoy-efir-strim-chto-eto-takoe-i-v-chem-raznica/

9. Цвик В.Л. Телевизионная журналистика: История, теория, практика: Учебное пособие. – Москва, 2004.

10. Черных А.И. Ритуалы и мифы медиа. – Москва, 2015.

11. Что такое стриминг. URL: https://skyeng.ru/magazine/wiki/it-industriya/chto-takoe-striming/

12. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси замон билан ҳамқадам / А.Хаджаев (ҳайъат кенгаши раиси), Ф.Маҳмудов, М.Сафаров, Н.Ҳикматиллаев, А.Ҳалимов, Ш.Ҳайитов, О.Шомуродов, П.Алламбергенова. – Toshkent: Ijod press, 2022.